

**ONA TILI VA O'QISH SAVODXONLIGI BO'YICHA MILLIY O'QUV
DASTURINING DIDAKTIK IMKONIYATLARI**

*Choriyeva Shoira Saydullo qizi
Termiz davlat pedagogika instituti
Ta'lif tarbiya nazariyasi Boshlang'ich ta'lif
2-kurs magistranti*

Annotatsiya

Ushbu maqolada boshlang`ich sinf o`quvchilarda ona tili va o`qish savodxonligi darslarida milliy o`quv dasturining didaktik imkoniyatlari va o`quvchilarning bilim savodxonligini aniqlash, o`qish savodxonligini o`rgatishda uning nazariy asoslarining tahlili tog`risida ma'lumot berilgan.

Kalit so`zlar: ona tili va o`qish savodxonligi, milliy o`quv dasturi, boshlang`ich sinf o`quvchilarning bilim savodxonligi, o`qish savodxonligini o`rgatish va uning nazariy asoslarini

Bugungi kunda rivojlanib borayotgan mamlakatimizda kelajagimiz davomchilari bo`lgan yoshlarning ijodkorligini har tomonlama qo'llab-quvvatlash, ularning bilim, ko'nikma va malakalarini davlat ta'lif standartlari asosida shakllantirish va xalqaro baholash tizimini takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Mavjud tizimni har tomonlama qiyosiy tahlil qilish, tegishli yo'nalishdagi xalqaro va xorijiy tashkilotlar, ilmiy-tadqiqot muassasalari bilan yaqindan hamkorlik qilish, ta'lif sifatini baholash bo'yicha xalqaro loyihalarni amalga oshirish, zamon talablariga javob beradigan munosib milliy baholash tizimini takomillashtirish rivojlanib bormoqda.

O`quvchiga tilni o`qitish orqali shu til bo'yicha egallanadigan nutqiy faoliyatning asosiy to'rt turi: nutqni tinglab tushunish, gapirish, o`qish va yozish amallari bo'yicha har bir sinfda taqozo etiladigan malaka va ko'nikmalar me'yorini rivojlantirish, bunda o`qish hamda mehnat jarayonida, oila va jamoat joylarida yuzaga keladigan turli nutqiy vaziyatlarda mustaqil ravishda fikr almasha olish va fikr bayon eta bilish, eshitilgan materialni idrok etish, shuningdek, yozma manbalarni o`qish orqali axborot olish, voqeа-hodisalarga o'z munosabatini bildirish tarzida muloqotga kirish malakasini egallab borish dinamikasi nazarda tutiladi. Ona tili va o`qish savodxonligi fani darslarida amalga oshirish lozim bo`lgan asosiy masala o`quvchida so'zga qiziqish va e'tibor hissini muntazam

sur’atda o’stirib borishdan, ularga so‘zning ahamiyati, turli matnlarda tutgan o‘rnini tushuntirishdan iborat. Fanlararo bog‘lanishni tafakkurning rivojlanishiga qiyoslash mumkin. Fanlarni o‘zaro bog‘lab o‘rganish, u yoki bu fan bo‘yicha o‘rganilayotgan voqeа-hodisa haqida o‘quvchida jonli mushohada qilish malakasini o‘stiradi. Bu bilan o‘quvchi voqeа-hodisa haqida aniq tasavvurga ega bo‘ladi. O‘qituvchi ona tili va o‘qish savodxonligi fanlarini bog‘lagan holda o‘qitar ekan, yangi materialni bayon qilish, mustahkamlash jarayonida, shuningdek, takrorlash, umumlashtirish vaqtida u yoki bu mavzu yuzasidan o‘rni bilan bog‘laydi va o‘quvchini mantiqiy, tahliliy mushohadaga undovchi turli mazmunga oid matnlardan foydalanadi. Bunday matnlardan foydalanish o‘quvchini ijodiy fikrlash, matnni tushunishga o‘rgatadi hamda ularning bilimi va dunyoqarashining boyishiga xizmat qiladi.

Yosh avlod ma’naviyatini rivojlantirish o‘zbek xalqining boy tarixi, milliy qadriyatları, urf-odatlari va ularni o‘zida aks ettirgan adabiy-badiiy meros bilan yaqindan tanishtirish, milliy an’ana, bayram, urf-odatlar asosida shakllangan milliy va umuminsoniy qadriyatlarni singdirishni taqozo etadi. Ona tili va o‘qish savodxonligida o‘rganilayotgan so‘z va so‘z shakllarini to‘g‘ri talaffuz qilish hamda yozish, so‘zni grammatik jihatdan to‘g‘ri shakllantirish, so‘zlarni o‘rinli tanlash va sintaktik-uslubiy jihatdan to‘g‘ri baholay olish, jumla tuzish va nutq ohangini belgilashda adabiy til imkoniyatlaridan o‘rinli foydalanish talab etiladi. Til o‘rganishda uzluksiz ta’limning boshlang‘ich va umumiyl o‘rta bosqichlarida til ta’limining lisoniy, lingvopsixologik, sotsiopsixologik va paralingvistik va muhimi,

umumdidaktik va o‘ziga xos metodik xususiyatlardan kelib chiqqan holda hosil qilinadigan nutqiy-kommunikativ, grammatik va umumtarbiyaviy vazifalar belgilanadi.

Ona tili nafaqat leksik va grammatik me’yorlarni o‘rgatuvchi, balki o‘quvchi nutqiy faoliyatida ixtiyoriy mavzu, fanlar kesimidagi matnlarni tinglab tushunish, to‘g‘ri o‘qish, orfoepik va orfografik me’yorlarni qo‘llash salohiyatini rivojlantirishiga xizmat qiladigan fandir. O‘quvchining mantiqiy, tanqidiy, ijodiy fikrlashi uchun ona tili darslarida o‘qib tushunishga alohida e’tibor qaratiladi. Ona tilini puxta o‘zlashtirgan o‘quvchi boshqa fanlarni qoniqarli o‘zlashtiradi. O‘qish savodxonligi mukammal bo‘lgan o‘quvchi boshqa fanlarda o‘rganayotgan matnlarni o‘qish orqali mantiqiy, tanqidiy, ijodiy fikrlaydi, olgan bilimlarini hayotda qo‘llay olish layoqati rivojlantiriladi. Shuningdek, o‘quvchining mantiqiy fikrlashini va amaliy ko‘nikmalarini shakllantirishga yo‘naltirilgan xalqaro baholash dasturi (PISA, PIRLS) talablariga mos keladigan matnlar bilan ishlashga mo‘ljallangan amaliy topshiriqlarni matnlarning mazmuniga moslashtirish

o‘qituvchi oldidagi asosiy vazifalardan biri. Bunda matnni tushunish, tahliliy, tanqidiy fikrlash va munosabat bildirish malakalarini shakllantirish ko‘zda tutiladi.

Uzliksiz ta’lim bosqichlarida o‘quvchilar “O‘qish savodxonligi kitobi” orqali so`z boylikni oshirish, so`z, so`z birikma va gaplarni o`z o`rniga qo`yish natijasida matnnni to`g`ri o`qiy olishi va fikrlashi tufayli kirib keladilar. So‘ng bosqichma-bosqich, asta-sekinlik bilan o‘z dunyoqarashi, tafakkuri, badiiy so‘z sehrini anglashga bo‘lgan iqtidoriga ko‘ra adabiyotning cheksiz ummonlariga g‘arq bo‘ladilar. Bugungi o‘quvchi dunyoqarashi, fikrlashi, voqelikka munosabati nuqtai nazaridan kechagidan farq qiladi. Tezkor axborot almashish zamonida, virtual olamda ulg‘ayayotgan o‘quvchi bugun adabiy ta’limning qolipga solingan, stereotip fikrlar, hokim qarashlar, o‘zlariga tanish ma’lumtolarni qayta bayon qilib berishdek eskicha, qolipga solingan yondashuvlari bilan murosa qilolmaydi. O‘qish savodxonligi darsligida berilgan ertak va hikoyalar boshlang`ich sinf o‘quvchilar tasavvurida ularning hayotiy ehtiyojlari o‘laroq tasavvur hosil qilmas ekan, u zerikarli va quruq g‘oylar majmui bo‘lib qolaveradi. Shu bois darslikda berilgan ertak va hikoyalar o‘quvchilarga ijobjiy ta’sir ko`rsatadigan hamda taassurotini boyitadigan darajada bo‘lmog‘i kerak. Bugungi kunda o‘qish savodxonligini o‘rgatishda uning nazariy asoslarini ishlab chiqish hamda o‘qitishning quyidagi masalalarini e’tiborga olish lozim:

1. Boshlang`ich sinf o‘quvchilarning ijodkorlik, faollik, fikrlash, mustaqil ishlash qobiliyatini rivojlantirishga xizmat qiladigan turli xil zamonaviy metodlardan foydalanish;
2. Boshlang`ich sinf o‘quvchilarning asosiy e’tiborini ertak qahramonlari, darslikda berilgan hikoyadagi ma’lumotlarni yodlashga emas, asar tahlili orqali ularning tushunish va fikrlash qobiliyatini shakllantirishga qaratish;
3. Asar orqali o‘quvchilarga o‘rganilayotgan asarning tayyor talqinlarni singdirishdan voz kechish, muayyan savol va topshiriqlar orqali o‘quvchilarning munosabatlarini shakllantirish;
4. O‘qish savodxonligi va mакtabda o‘rganiladigan boshqa fanlar bilan integratsiyasini ta’minlovchi metodlarni to`g`ri qollash;
5. Ertak va hikoyalar tahlilida o‘quvchi hayoti bilan aloqasini ta’minalash, o‘quvchining o‘qish savodxonligiga shunchaki fan sifatida emas, balki hayotiy ehtiyoji sifatida fikrlashga o‘rgatishdan iborat.

Bunday holatda savol va topshiriqlar boshlang`icha sinf o‘quvchilarni asarga qiziqtirishi, asar mazmunini tushunishga tayyorlashi, badiiy matnni tushunish — tahlil qilishga, mustaqil fikrlashga, badiiy asar ustida chuqr mushohada yuritishga yo‘naltiradi. O‘quvchilarda badiiy asarni tushunish darajasini baholash ham xuddi matn tahlilidagi kabi so`z, so`z birikma, gap va matnnning tartibini o‘rgangani singari amalga oshiriladi. Shuni alohida ta’kidlash kerakki, xalqaro baxolash dasturi or?ali

o‘quvchilarning o‘qish savodxonligi bo‘yicha jamiyat tomonidan talab qilinadigan va inson tomonidan qadrlanadigan yozma tilning shakllarini idrok etish va amaliyotda qo‘llay olish qobiliyati, matnlar mazmunini turli xil shakllar yordamida o‘zlashtira olishlarini baholashimiz mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagи “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlanirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘grisida”gi PF-4947-son farmoni \ O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami. 2017 y.
2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 8 dekabrdagi “Xalq ta’limi tizimida ta’lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari to‘grisida”gi 997-sonli qarori
3. To’xliyev B., M.Shamsiyeva, T.Ziyadova. “O‘zbek tili o’qitish metodikasi” Toshkent. “Yangi asr avlodи” nashriyoti. 2006-y.
4. Tolipov O`. Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslari. Toshkent. 2010 y.
5. Kenjayeva M.A. O‘quvchilar bilim savodxonligini aniqlashda Xalkaro P1SA baholash dasturidan foydalanish. Zamонавиу та’лим ва тарбия: muammolar, yechimlar va rivojlanish istiqbollari. Respublika ilmiy anjumani materiallari to‘plami. Termiz: 2021. – 22 b.